

O'SMIRLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN SALBIY XATTI-HARAKATLARNING PSIXOLOGIK MAZMUNI

Axmatova Guli Xurram qizi

*Iqtisodiyotva pedagogika universiteti o'qituvchisi
Qarshi shahri gulixurramovna@gmail.com +998975859601*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida shaxs rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlarning psixologik va fiziologik mazmuni yoritilgan. Bu davrda rivojlanishning bosqichlari va psixologik reaktsiyalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'z: o'smirlik, pubertat, postpubertat, psixologik reaktsiyalar, o'smirlik inqirozi.

Shaxs kamolotini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'smirni kirizisli davridan to'g'ri olib chiqish, uning xulq-atvorida o'zgarishlarni ertachi aniqlash va yordam ko'rsatish asosiy vazifalardan biridi. O'smirlarning muammolarini o'rghanishda aggressiv holatlarga berilishi, nizoli vaziyatlarda o'zini boshqara olmaslik xolatlari kuzatiladi va bu albatta o'smirning individual psixologik xususiyatlariga bog'liqidir. Global axborot xurujlari davrda o'smir psixikasiga berilayotgan yot g'oyalari ta'siridan saqlash, o'smirning salbiy ta'sirlarga berilish sabablarini o'rghanish, oldini olish dolzarb masalalardan biridir.

O'smirlik davri rivojlanishi olimlar tomonidan yosh davrlarida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik, biologik o'zgarish bilan bog'liqli o'rghanilgan. O'smirlik va ilk o'sprinlik yosh doirasi bo'yicha bir biriga chambarchas bo'g'langan bo'lib, bu davr oralig'ini fiziologlar tomonidan uch bosqichga bo'lingan:

- Prepubertat
- Pubertat
- Postpubertat

Bu tushunchalar yosh toifasidagi yigit va qizlarni balog'at yoshidan oldingi davri, balog'at davri va balog'atdan keyingi davr sifatida o'rghanishimiz mumkin.

Prepubertat davrni bolalikning ikkinchi davri kichik maktab yoshi davri sifatida 7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar, 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha qiz bolalar kiritiladi. Pubertat davri ya'ni balog'at yoshi o'rta maktab yoki balog'at yoshidagi 12-13 yoshdan 16 yoshgacha o'g'il bolalar; 11-12 yoshdan 15 yoshgacha qizlar kiritilgan. Postpubertat o'smirlikda voyaga yetmaganlik yoshi bo'lib 17 yosh o'g'il bolalar, 16 yoshdagi qizlar kiritilgan.

O'smir psixologik reaktsiyalar, atrof-muhit ta'siri natijasida o'zida xarakterli xatti-harakatlarni shakllantiradi:

-Ozodlik reaktsiyasi. Bu mustaqillikka intilishni aks ettirib, o’smir kattalardan o‘zini ozod qilishga intiladi. Bu reaktsiya o’smirda uydan yoki mактабдан qochish, hissiy portlashlar asosida yuzaga kelishi mumkin.

- “Negativ taqlid” reaktsiyasi. Bu qarama-qarshi xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi oila a’zolarining munosabat shakllanishini aks ettiradi.

- Guruhlash reaktsiyasi. Bu o’smir guruhlari uning rahbari bilan munosabatlar tizimiga guruh ichidagi muayyan xulq-atvorga ega bo‘lish istagini tushuntiradi.

-Qiziqish reaktsiyasi (Xobbi reaktsiyasi). O’smir shaxsiyatining ichki tuzilmalarini ko‘rsatadi. Sportga bo‘lgan ishtiyoq, yetakchilikka intilish, qimor o’smir o‘g‘il bolalar uchun ko‘proq xosdir. Sinf motivlar atrofdagilarning e’tiborini jalb qilish istagi (havaskorlarning chiqishlarida ishtirok etish, ekstravagant kiyimlarga bo‘lgan qiziqish va boshqalar) qizlarga ko‘proq xosdir.

-Rivojlanayotgan jinsiy istak reaktsiyalari (jinsiy muammolarga qiziqish, erta jinsiy hayot, masturbatsiya va boshqalar). Ta’riflangan reaktsiyalar ma’lum bir xatti-harakatlar uchun normal bo‘lgan xatti-harakatlar sifatida ifodalanishi mumkin yosh davri va patologik davrda nafaqat maktabga olib keladi va ijtimoiy moslashuv, lekin ko‘pincha terapevtik tuzatishni talab qiladi.

O’smirlik yoshi kattalarga qaramlik, ularsiz yashay olmaslik va mustaqil bo‘lish, farzandlarni kamolga yetkazish orasidagi o‘tish davri hisoblanadi. Bu davrda o’smir yigitlar qizlardan ko‘ra rivojlanishda oldinga chiga boshlaydi. O‘g‘il bolalarning ovozida o‘zgarish yuzaga keladi, bo‘yining o‘sishi 5-10 smga yetadi. Bu davrda mushak tizimi jadal rivojlanadi, skeletning rivojlanishi tugaydi va sut tishlari doimiy tishlar bilan almashtiriladi. Organlar va tananing mushak massasining ortishi kuzatiladi, buning natijasida jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklar aniqlanadi. Bu davrga o‘tganligini u o‘zini kattalarga o‘xshatishiga harakat qiladi yoki hech bo‘limganda katta odam bo‘lishga urinadi. Uning fikrini atrofdagilar hurmat qilishini xohlaydi, ota-onasi yoki atrofdagilarning munosabatiga aggressiv javob qaytaradi. Bu davrda urishqoqlik, o‘jarlik, aybini tan olmaslik, yolg‘on gapirish kabi salbiy holatlar kuzatiladi. O’smirlar o‘z xatti-harakatlariga javob bera olmaydi yangi muhitga moslasha olmasligi, atrofdagilar bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarda portlashlar yuzaga kelishi mumkin. L.V.Vigotskiy yosh davrlarida yuzaga keladigan holatlarni “psixik rivojlanish inqirozları” deb ta’rif bergan. Inqirozli holatlar bolada tushkunlik, yolg‘izlik, o‘jarlik, qaysarlik, hayotga nisbatan negativ munosabatlarning namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. O’smir oilasi bilan munosabatida murosa qila olmasa o‘z tengdoshlari bilan muloqot qila boshlaydi. Uni tushunadigan unga yordam ko‘rsatadigan o‘z tengdoshlari ekanligiga ishonib qoladi. Bu davrda o’smir atrofidagi do‘st

dugonalar yomon yo'lga boshlashi mumkin. Bunda bolaning xulq-atvoridagi tarbiyasi qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilkova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent-2018.
2. M.G.Davletshin Yosh va pedagogik psixologiya.T-2004.
- 3.Bekkiyeva N. (2024). O'smirlarda soxta diniy tushunchalarning shakllanishida ijtimoiy omillarning pixologik o'rni.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10775578>
- 4.<https://psychologyanswers.com/library/lecture/read/144943-how-do-you-overcome-behavioral-changes-in-adolescence>
5. 2004<https://studfile.net/preview/7268094/page:10/>

